

SURXONDARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT


2026-yil 1-iyul holatiga ko'ra

- I. Korxona va tashkilotlarning soni
- II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar
- III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
- IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

I. Korxona va tashkilotlarning soni

2026-yil 1-iyul holatiga ko'ra, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (dehqon va fermer xo'jaliklari bundan mustasno) 26 898 tani tashkil etadi, shundan 22 529 tasi yoki 83,8 foizi kichik korxona va mikrofirmalardir. 2025-yilning shu davriga nisbatan ko'payish 7,0 foizni, jumladan, kichik biznes va mikrofirmalarda 7,1 foizni tashkil etdi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (birlikda)



Yillar	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
2026	26 898	22 656	22 529
2025	25 136	21 134	21 053
2024	23 479	19 461	19 373
2023	25 047	21 129	21 026
2022	29 942	26 062	25 962

Hududlar bo'yicha eng ko'p faol korxona va tashkilotlar Termiz shahrida – 19,7 foiz, Denov – 11,2 foiz, Jarqo'rg'on – 7,4 foiz, Sherobod – 7,2 foiz va Termiz tumanlarda – 6,4 foizdan faoliyat ko'rsatmoqda.

Tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining umumiy sonidagi salmoqli ulushi Termiz shahrida – 89,1 foiz va 88,5 foiz, Denov – 83,7 foiz va 83,1 foiz, Jarqo'rg'on – 84,9 foiz va 84,5 foiz hamda Sherobod – 85,8 foiz va 85,4 foiz tumanlarga to'g'ri keldi.

Shahar va tumanlar	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
Termiz shahri	5 309	4 732	4 698
Denov tumani	3 018	2 525	2 507
Jarqo'rg'on tumani	1 998	1 696	1 688
Sherobod tumani	1 935	1 661	1 652
Qumqo'rg'on tumani	1 733	1 417	1 411
Termiz tumani	1 726	1 556	1 548
Sho'rchi tumani	1 666	1 380	1 376
Sariosiyo tumani	1 499	1 154	1 149
Oltinsoy tumani	1 415	1 143	1 136
Angor tumani	1 359	1 159	1 153
Uzun tumani	1 261	1 003	997
Qiziriq tumani	1 209	1 017	1 009
Muzrabot tumani	1 074	877	874
Boysun tumani	987	768	767
Bandixon tumani	709	568	564

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

Korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarning (tadbirkorlik subyektlari va kichik biznes subyektlarining) eng ko'p qismi "Savdo" tarmog'ida qolmoqda, ularning ulushi 2026-yil 1-iyul holatiga 33,9 foizni (40,2 foiz va 40,3 foiz) tashkil etdi.



Ikkinchi o'rinda "Sanoat" 11,9 % (14,1 % va 14,1 %), uchinchi o'rinda "Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi" 8,8 % (10,3 % va 10,3 %).


Birgalikda ushbu uch turdagi faoliyat ularning umumiy sonining 50 % dan ortig'ini tashkil qiladi.

Korxona va tashkilotlar

Iqtisodiy faoliyat turi	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	2 372	2 336	2 324
Sanoat	3 214	3 195	3 171
Qurilish	2 037	2 019	1 998
Savdo	9 107	9 107	9 083
Tashish va saqlash	665	660	655
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 968	1 961	1 959
Axborot va aloqa	484	477	476
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	784	516	511
Boshqa turlar	6 267	2 385	2 352

II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar

2026-yil 1-iyul holatiga ko'ra, 22 656 ta faol tijorat korxonalaridan 15 325 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tashkil etilgan bo'lib, ular tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinni egallab turibdi.



Tadbirkorlik subyektlari


Shundan kelib chiqib, MChJlar viloyatimizda biznes yuritishning eng keng tarqalgan shakli degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Tashkiliy-huquqiy shakli	Tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)	Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (foizda)
Mas'uliyati cheklangan jamiyat	15 325	67,7
Xususiy korxonalar	4 044	17,8
Oilaviy korxonalar	3 016	13,3
Aksiyadorlik jamiyati	17	0,1
Boshqalar	254	1,1

Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 594 ta korxonalardan 67 tasi qo'shma korxonalar va 527 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.



Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar

2026-yil 1-iyul holatiga ko'ra, chet el investitsiyalar ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning soni, 2024-yilning mos davriga nisbatan 275 taga oshgan. Bu asosan, savdo sohasida 149 tadan 327 taga (o'sish 178 taga), axborot va aloqa sohasida 10 tadan 56 taga (o'sish 46 taga) va sanoat sohasidagi korxonalar sonining 58 tadan 80 taga, (o'sish 22 taga) ko'payishi hisobiga yetdi.

Iqtisodiy faoliyat turi	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Jami:	594	67	527
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	42	13	29
Sanoat	80	26	54
Qurilish	40	7	33
Savdo	327	13	314
Tashish va saqlash	14	1	13
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	15	2	13
Axborot va aloqa	56	-	56
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	5	1	4
Boshqa turlar	15	4	11

Ayrim davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar tahlil qilganda, yetakchi o'rinni 328 ta korxona bilan Afg'oniston respublikasi egalladi. Bu viloyatdagi chet el investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 55,2 foizini tashkil etdi. Surxondaryo viloyati iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritib hissasini qo'shaytgan mamlakatlar orasida Rossiya Federatsiyasi (8,9 %), Tojikiston (6,9 %), Xitoy (6,9 %), Turkiya (4,9 %) va Qozog'iston (2,2 %) ham alohida o'rin egallaydi.

Davlatlar	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Jami:	594	67	527
Afg'oniston	328	15	313
Rossiya	53	12	41
Tojikiston	41	8	33
Xitoy	41	7	34
Turkiya	29	7	22
Qozog'iston	13	2	11
Pokiston	14	-	14
Hindiston	7	2	5
Eron	6	4	2
Buyuk Britaniya	4	1	3
Janubiy Koreya	4	1	3
Armaniston	3	3	-
Ozarbayjon	2	-	2
Qirg'iz Respublikasi	2	-	2
Turkmaniston	2	1	1
BAA	1	1	-
Germaniya	1	1	-
AQSH	1	1	-
Yaponiya	1	1	-
Ukraina	1	-	1
Boshqa davlatlar	40	-	40

III. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

Registrlarni yuritish bo'yicha statistik faoliyatni amalga oshirish uchun asos bo'lib Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi "Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 539-son qaroriga muvofiq Korxona va tashkilotlarning ma'lumotlari statistik tasniflagichlarga asosan shakllantiriladi.

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2026-yil 1-iyul holatiga ko'ra, (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Metama'lumot uchun havolalar:

[Metama'lumot korxona va tashkilotlar soni](#)

[Glossariy](#)

[Statistik klassifikatsiyalar](#)

Mavzuga doir ko'rsatkichlar::

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyati soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, oylik\)](#)

[Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sanoat yo'nalishida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Qurilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Savdo sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Tashish va saqlash xizmatlari sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Axborot va aloqa sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:

Raqamlashtirish va statistik
registrlarni yuritish bo'limi

Ijrochi:

O. Raxmonov
55 451-80-00 (76-50)

Maznil:

190108, Termiz shahar,
At-Termiziy ko'chasi, 7-uy
